



XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 7-noyabr

VII-14-139-12-0-K/25

Xorazm viloyati

Viloyat hududida maishiy chiqindi xizmatlari uchun to'lov tariflarini miqdorini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvarda "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5-sonli farmoni 1-ilovasining 4-bosqichida xalq deputatlari mahalliy Kengashlari maishiy chiqindi xizmatlari tariflarini qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash belgilangan.

Viloyat hokimligining 2025-yil 20-oktabrdagi 03-5-09/10652-sonli xati hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 20-oktabrdagi Xorazm viloyati "Toza hudud" DM, "Eco klaster" MCHJ va "Xorazm gaz payvandchilar" MCHJ tomonidan jismoniy shaxslarning qattiq va maishiy chiqindilarini tashib ketish xizmatlari narx (tarifi) (QQS bilan) 6 700 so'm (bir kishi boshiga bir oyda) hamda yuridik shaxslarning qattiq va maishiy chiqindilarini tashib ketish xizmatlari narx (tarifi) 1 m³ uchun (QQS bilan) 74 060 so'm miqdoridan oshmagan holda belgilash yuzasidan 02-17-33-38/1055-sonli va "Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi" davlat muassasasi tomonidan hududiy poligonlarda maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash xizmatlari narx (tarifi) QQS siz 18 000 so'm QQS bilan birga 21 600 so'm (bir metr kub uchun) miqdoridan oshmagan holda belgilash yuzasidan 02-17-33-38/1057-sonli xulosalariga asoslanib, viloyat hududlaridan maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini takomillashtirish, hududlarning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashi

Qaror qiladi:

1. Viloyat hududida maishiy chiqindi xizmatlari uchun to'lov tariflarini miqdorini tasdiqlash to'g'risidagi viloyat hokimligining 2025-yil 20-oktabrdagi 03-5-09/10652-sonli xati hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 20-oktabrdagi 02-17-33-38/1055-sonli va 02-17-33-38/1057-sonli xulosalari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2024 yil 26-apreldagi "Xorazm viloyati hududlarida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari miqdorini belgilash to'g'risida"gi VI-80-57-12-0-K/24-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Xorazm viloyatining shahar (tuman)larida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo'ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimining o'rinbosari S.Bekchanov belgilangan tartibda shahar (tuman)larda maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari (narxlari) miqdorini tasdiqlash to'g'risida viloyat hokimining qarori loyihasini ishlab chiqsin.

5. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish viloyat boshqarmasi (B.Sabirov), viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi (K.Tangriberdiyev), viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi (M.Samandarov) shahar (tuman)lar hokimliklari bilan birgalikda aholining keng qatlamlari orasida fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

6. Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi direktori O'.Matqurbanov hamda "Xorazm haqiqati" gazetasi bosh muharriri S.Raximberganovalar ushbu qarorni rasman e'lon qilsin.

7. Mazkur qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi raisi K.Igambergenov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RADJABOV ALTIBAY
BEGJANOVICH

Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining
2025-yil 7-noyabrdagi
VII-14-139-12-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyatining shahar (tuman)larida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo'ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabballari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari

Xizmat ko'rsatiladigan shaxslar	Tip, marka, artikul yoki madel raqami	O'lchov birligi	Tarif miqdori (so'm)
Aholi uchun (1 fuqarodan 1 oyda) (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	Bir oyda bir fuqaro uchun	6 700
Yuridik shaxslar uchun (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	m ³	74 060
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan o'z texnikalari yordamida markaziy chiqindi saqlash obyektiga qattiq maishiy chiqindilarni olib borib joylashtirish (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	m ³	21 600